

JADID MUNAVVARLARIDAN MAHMUD SAID AHRORIY FAOLIYATI XUSUSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid munavvarlaridan biri Buxoro jadidchilik harakati faollaridan biri Mahmud Said Ahroriyning faoliyati va taraqqiyparvarlikdagi say harakatlari xususida ilmiy tahlil yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Jadid, jadidchilik, Said Ahroriy, Buxoro, taraqqiyparvar, Turkiston, ta'lim, taraqqiyot, ziyoli, gazeta, ijtimoiy-siyosiy, "Buxoro axbori", madaniyat.

МАХМУД САИД АХРАРИ ИЗ ДЖАДИДСКИХ МУНАВВАРОВ О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В этой статье будет проведен научный анализ деятельности одного из джадидских мунавваров, одного из активистов Бухарского джадидистского движения, Махмуда Саида Ахрари, а также движения Саи в прогрессе.

Ключевые слова: Джадид, джадидизм, Саид Ахрари, Бухара, прогресс, Туркестан, образование, прогресс, интеллигенция, газета, общественно-политическая, "Бухарская информация", культура.

MAHMUD SAEED AHRORY OF JADID MUNAWARS ACTIVITIES

Annotation. This article will conduct a scientific analysis on the activities of Mahmud Said Ahrori, one of the Jadid munavvars, an activist of the Bukhara jadidism movement, and on say's actions in progressive politics.

Keywords: Jadid, jadidism, Said Ahrory, Bukhara, progressive, Turkestan, education, development, intellectual, newspaper, socio-political, "Bukhara akhbori", culture.

XIX asrning 80-yillarida vujudga kelgan jadidchilik harakati o'sha davrda o'z davrining ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, xususan ziyolilar xalqning umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilishga harakat qilganlar. Bunday jadidlar O'rta Osiyoda uchta hududda Turkiston, Buxoro va Xivada o'z faoliyatini olib borganlar. Bu jadidlarni sanaydigan bo'lsak ularni soni anchani tashkil etadi. Maqolada Buxoro jadidlari haqida fikr yuritish asnosida Mahmud Said Ahroriy faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratilib, o'zining faoliyati davomida bir qancha taraqqiyparvarlik harakatlari bilan tarixda nom qog'ongan Buxoro jadidlaridan biri hisoblanganligi borasida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Mahmud Said Ahroriy 1895-yilda Arabistonda dunyoga kelgan bo'lib, uning otasi Abdurashidxo'ja eshon Ahror o'g'li asli Xo'jandlik (hozirgi Tojikiston Respublikasi) bo'lib, savdo ishlari bilan shug'ullangan. Abdurashidxo'ja eshon Chor Rossiyasi ta'qibiga yo'liqqan bo'lsa kerak, haj safariga ketib, o'z yurtiga qaytmagan. Yolg'iz farzandi Mahmud Saidning arab olamiga singib ketishini istamay taxminan 1903-1905-yillarda Turkiyaga ko'chib kelib, Istanbul shahrida yashay boshlagan. Mahmud Said shu yerda gimnaziyani va harbiy bilim yurtini tugallagan[1].

Mahmud Said Ahroriy 1914-yil 1-jahon jahon urushida qatnashgan. Dardanell uchun janglarda ishtirok etib, Galitsiyada asir tushgan va taqdir taqazosi bilan 1918-yilda Toshkentga kelgan. 1918-1920-yillarda Toshkent maktablarida o'qituvchilik qilish bilan bir qatorda "Izchilar to'dasi" deb atalgan to'garak tashkil etgan. 1920-yilning kuzida Buxoroga keladi va Yosh

buxoroliklar partiyasiga a'zo bo'lib kiradi. Shu vaqtdan boshlab Buxoro Ishtirokiyun firqasining fikr tarqatuvchisi "Buxoro axbori" gazetasida muharrir vazifasida xizmat qiladi.

1921-yildan boshlab birmuncha Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Ozarbayjondagi konsuli bo'lib ishladi. Said Ahroriy Samarqandga qaytib bu yerda moliya –iqtisod texnikumida o'qituvchilik qilgan. Chunki, 1930-yil 12-noyabrda aynan shu yerda hibsga olingan. 1931-yil 13-mayda Moskva shahrida RSFSR jinoyat majmuasining 58-moddasi 4-bandi bilan otuvga hukm etilgan va o'sha yilning 23-mayida otib tashlangan edi. Bu fojiali qismatdan oltmish yil mobaynida turmush o'rtog'i Vaziraxon aya hamda ortda qolgan 4 farzandi bexabar edi. O'zbekiston istiqloлга erishganida "Shaxidlar xotirasi" majmuasining ochilishi marosimida birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan Said Ahroriyning istiqloл yo'lidagi xizmatlari e'tirof etilib, munosib shoxsupadan o'rin berilganligi adolatli davlat qurayotganimizni dalili bo'lib qalblarni yoritdi[2]. Bu haqda u kishining qizlari, kekxa jurnalist, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Xolida Ahrorova shaxsan nashrga tayyorlagan Said Ahroriyning "Tanlangan asarlar" kitobining kirish qismida ham aytib o'tadi.

Ushbu kitobdan 20-yillardagi madaniy harakat ishtirokchisi Said Ahroriyning millat qayg'usida bitilgan sara asarlari o'rin olgan. Nashrga tayyorlash jarayonida bevosita ko'mak bergan jurnalistika faxriysi Abul Bozorovning xizmatlari Xolida Ahrorova tomonidan alohida e'tirof etilgan.

Said Ahroriy qisqa umrining nisbatan katta qismini Buxoroda kechirdi. U "Buxoro axbori" gazetasida 1920- 1921-yillarda bosh muharrirlik qilgan. Yosh Buxoro Respublikasida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, adabiy organ bo'lmish mazkur gazetaning tashkil etilishidan tortib, uning rang-barang, ommabop bo'lib shakllanishigacha Said Ahroriyning xizmatlari beqiyosdir. Ayni paytda o'zining qalamiga mansub siyosiy-ijtimoiy ahvolga doir maqolalar, badiiy asarlardan namunalar, tarbiya masalalariga oid fikrlar "Buxoro axbori"ning turli sonlarida bosilib chiqqan. Bularning soni taxminan 28 tani tashkil etadi. Yana shuni e'tirof etish kerakki, Said Ahroriy 1921-yildan bosh muharrirlikni Cho'lponga topshirib, boshqa siyosiy faoliyatga o'tib ketgan bo'lsada, gazeta bilan aloqani uzmas, maqolalar berishni davom ettiraverdi.

S.Ahroriy ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda o'nlab mazmunan boy, mulohazaga chorlovchi maqolalar, she'rlar va badialar yaratdi. Ularda o'sha davr tarixiy muhiti, qalb iztiroblari, hayot qiyinchiliklari, turmush chigalliklari badiiy, publitsistik uslubda yuksak mahorat bilan bayon qilingan. Istiqloл fidoiysi bo'lgan Said Ahroriy 1918-1931-yillarda "Turk so'zi", "Ishtirokiyun", "Uchqun", "Buxoro axbori", "Ozod Buxoro", "Zarafshon", "Qizil O'zbekiston" gazetalarida hamda "Alanga", "Maorif va madaniyat", "Maorif va o'qituvchi" kabi jurnallarda o'nlab maqolalar, badia va she'rlar e'lon qildi. "Buxoro jug'rofiyasi" nomli darslik, "Oila kitobi" ("Xonim-qizlarimizga tortiq" va "Sovchi" kabi ikki kitobdan iborat) ham Ahroriy qalamiga mansubdir. Said Ahroriy 1920-yilda Buxoroga kelib, BXSР matbuot organi bo'lgan "Buxoro axbori" gazetasining 1920-yil 9-sentabrida dunyo yuzini ko'rgan birinchi sonidan 1921-yil 30-iyunda chiqqan 41-soniga qadar bosh muharrirlik vazifasida ishladi[3].

Ta'kidlangan davrda uning 28 ta maqolasi gazeta sahifalarida e'lon qilindi. 1921-yil yozidan Said Ahroriy Ozarbayjondagi Buxoro Respublikasining konsuli vazifasiga o'tkazilgan. Buxoroga qaytgach, 1923-1924-yillar davomida "Ozod Buxoro" gazetasida muxarrir o'rinbosari va davlat nashriyoti rahbari lavozimlarida faoliyat yuritdi. 1925-yildan Said Ahroriy Samarqandda moliya-iqtisod texnikumida o'qituvchilik qilgan. 1930-yil 12-noyabrda aynan shu yerda hibsga olingan. 1931-yil 23-mayda Moskva shahrida RSFSR jinoyat majmuasining 58-moddasi 4-bandi bilan otuvga hukm etilgan. O'limidan so'ng oqlangan[4].

Said Ahroriyning ilmiy va madaniy merosida tarbiya, ta'lim, komil insonni yetishtirish masalalariga qaratilgan maqola hamda asarlar salmoqli o'rinni egallaydi. Muallifning "Ta'lim va tarbiyaning insong'a qarashi", "Fikr tarbiyasi", "Hofiza kuchi", "Qanday kishi murabbiy bo'la oladur?", "Yoshlarimizga", "Turmush yo'linda", "Eski-yangi tarbiya usullaridagi ayirmalar" kabi maqolalari hamda "Oila kitobi" ("Xonim-qizlarimizga tortiq" va "Sovchi" kitoblaridan iborat) bevosita ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangandir. Said Ahroriy, avvalo, inson omili,

42 uning moddiyati va ma'naviyati haqida bahs yuritir ekan, sog'lom va jismonan baquvvat bo'lish, ilmiy va faniy rivojning asosi deb qaraydi.

U tarbiya masalasida insonning jismoniy sog'ligi va fikr barkamolligi kabi omillarni alohida ta'kidlar ekan, insoniyat tarixidan bir qator misollar keltiradi. "Hofiza kuchi" maqolasida insonga ato etilgan iste'dodlardan biri-bu hofiza (yodda saqlash) ekanligini ta'kidlab, tarbiya jarayonida uni shakllantirish murabbiylarning asosiy vazifasi bo'lishi kerakligini uqtiradi. Said Ahroriyning "Qanday kishi murabbiy bo'la oladur?" (1923-yil noyabr) degan maqolasi kishini keng mushohada yuritishga chorlaydi. Maqolada tarbiya ilmi jiddiy masala bo'lib, bolalarimiz tarbiyasini hammaga ham ishonmaslik, parvosizlik ko'rsatmaslik haqida qimmatli maslahatlar beriladi.

Said Ahroriy o'tmishdan meros bo'lib qolgan quruq yodlash, zo'rlash yo'li bilan bolalarni o'qitish va tarbiya qilishni keskin tanqid qiladi. Nazariyot va amaliyotni qo'shib borish, ta'limni tugal, unumli bo'lishidagi asosiy omil deb qaraydi. Ibrat-namuna ko'rsatish orqali tarbiyalash usulini qo'llash ko'p foyda berishiga e'tiborni qaratadi.

Xulosa qilib aytganda Mahmud Said Ahroriy XX asr boshidagi o'zbek matbuoti, siyosiy fikri va jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biridir. Uning hayoti Sharqning diniy-ma'rifiy an'analari, Usmonli maktablarida olgan zamonaviy ta'limi va keyin Turkiston zaminidagi siyosiy uyg'onish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Said Ahroriy o'z publitsistik faoliyati orqali Buxoroda yangicha tafakkur, ma'rifat, adolat va ijtimoiy islohotlar g'oyalarini targ'ib qildi. "Buxoro axbori" kabi gazetalarga asos solishi yoki ularni boshqarishi esa uning matbuot sohasiga qo'shgan eng katta hissalaridan bo'ldi.

Uning faoliyati jadidlar bilan umumiy tamoyillarga ega edi: xalqni o'qitish, ijtimoiy tenglik, xotin-qizlar huquqlarini qo'llab-quvvatlash, zamonaviy davlat boshqaruviga intilish, siyosiy jarayonlarda faol qatnashganligi, Yosh buxoroliklar bilan hamkorligi, BXSРning diplomatik vakili sifatida ishlagani uning siyosiy yetukligini ko'rsatadi.

Sovet hokimiyati tomonidan "xalq dushmani" sifatida qatag'on qilinishi - o'sha davrdagi ko'plab ziyolilarning fojiasiga o'xshash bo'lib, aslida uning xalq uchun qilgan xizmatlari qanchalik katta bo'lganini yanada yaqqol ko'rsatadi. Keyinchalik oqlangani ham uning tarixiy o'rnining haqqoniy bahosidir.

Umuman olganda, Mahmud Said Ahroriy o'zbek matbuoti asoschilaridan biri, jadid ma'rifatchilik g'oyalarining faol targ'ibotchisi va Buxoro ijtimoiy-siyosiy hayotida chuqur iz qoldirgan milliy ziyolilardan biri sifatida tarixda munosib o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hayitov Sh., Rahmonov K. Istiqlolning ikki buyuk farzandi. –Buxoro, "JTM", 2003. –B. 4.
2. Hayitov Sh., Rahmonov K. Istiqlolning ikki buyuk farzandi. –Buxoro, "JTM", 2003. –B.5.
3. Хайитов Ш. Биринчи муҳаррир. "Бухоронома". 2003 йил 10 сентябр
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahmud_Said_Ahroriy
5. Akhmadova L.A. SAID AHRARI'S INTERPRETATION OF ARCHITECTURAL MONUMENTS IN THE PRESS (IN THE CASE OF THE MAUSEUM OF ISMAYL SOMONI) // NEW RENAISSANCE JOURNAL. –B. 951-954.